

yaratishga qo‘yiladigan metodik talablar. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 295-305.

3. Мухамадиева, Ф. И. (2021). “ТАЪЛИМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ” ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. Scientific progress, 1(6), 1238-1242.

4. Баранова Н. Google Classroom: Как с нуля создавать онлайн курсы (версия 2020) // https://te-st.ru/entries/google_classroom/

5. Adashboyev Sh. Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar . O‘quv – uslubiy majmua. Toshkent 2023.

6. Mukhamadiyeva, F. I. (2023). EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF USING EDUCATIONAL RESOURCES IN EDUCATION WITH THE HELP OF SOCIAL NETWORKS. Web of Technology: Multidimensional Research Journal, 1(9), 19-6

7. Tuxtamatov X.R. Ma’lumotlarni aks ettirishning ko‘p o‘lchovli modeli va uning qo‘llanish sohalari. // Results of National Scientific Research International Journal 2023 Volume 2| Issue 5 SJIF- 5.8, Researchbib 7.1 ISSN: 2181-3639

8. Мухамадиева, Ф. И. (2018). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НОВЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ. In WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS (pp. 170-172).

XORIJIY MAMLAKATLARDA ELEKTRON O‘QUV RESURSLARINI TA’LIM TIZIMIGA JORIY QILISHNING TAHLILI

O‘roqova Sharofat Bahodir qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Axborot texnologiyalari kafedrası katta o‘qituvchisi

Shovruqov Fazliddin Rustam o‘g‘li

Nizomiy nomidagi TDPU Axborot tizimlari va texnologiyalari 2-bosqich talabasi

Zamonaviy axborot jamiyatida mediata’lim rivoji tendensiyalari. Dunyoning barcha davlatlarida kuzatilayotgan ta’lim inqirozining turli ko‘rinishlari ko‘pincha

jamiyatdagi kelishmovchiliklari bilan bog‘liq bo‘lib, moddiy zahiralarni qayta ishlab chiqarish asoslariga tayangan. Industrial muhit tiklanish davridan hozirgi dunyo rivojlangan jamiyati faoliyati prinsiplari o‘rnini egallaydi va yangicha axborot texnologiyalarga asoslanadi.

Bugungi kunda axborot energiya va materiallar qatorida asosiy zaxira bo‘lib kelyapti. Axborot zaxiralari asosiy Milliy boylik hisoblanib, davlatning iqtisodiy salohiyatini aniqlaydi. Axborot sonining o‘sishi mavjud bo‘lgan qayta ishlash vositalari, uzatish, saqlash va integratsiyalash imkoniyatlaridan o‘zdi. Axborotlashtirish jarayoni ta’sirida yangi struktura – axborot jamiyati barpo etiladi. U axborot texnologiyalarini yuqori darajasi bilan ajralib turadi, rivojlangan infrastrukturallari axborotga kirishni ta’minlaydi, axborot zaxiralari ishlab chiqarish, tezkor avtomatlash jarayoni, ishlab chiqarish va boshqaruv tarmoqlarini robotlashtirish, ijtimoiy strukturalarning radikal o‘zgarishi – barchasining negizida axborot faoliyati muhitini kengaytirish yotadi.

“Ta’lim sohasidagi siyosat va yangi axborot texnologiyalar” Rossiya Federatsiyasi Milliy ma’ruzasida YuNESKO ning II Xalqaro kongressida (1996 yil iyul, Moskva) “Informatika va ta’lim” da ta’lim axborotlashtirishi yangi davlat ta’lim dasturini xayotga tadbiq etishning asosiy vositasi deb tushuniladi. Tor mutaxassisli pragmatik maqsadlardan fundamental fanlararo bilimlarga o‘tiladi.

Oliy maktabning axborotlashtirish strategiyasida prinsipial daqiqalaridan biri deb ta’lim axborotlashtirilishidan jamiyat va Rossiya mintaqalarini axborotlashtirishga o‘tish hisoblanadi.

Ta’lim tizimini, jamiyat hayotini axborotlashtirish ta’sirini baholashda hozirgi daqiqalik ehtiyojlardan kelib chiqmay, balki tasavvurdagi kelajak modeliga tayanish zarur, chunki texnik qoloqlik va samarasiz harajatlar shubhasiz tayin.

Oliy ta’lim tizimi yuqori tajribali ishchi kuchini tayyorlash manbai sifatida ish bilan ta’minlash sohasi xususiyatlarini ko‘zda tutish kerak va shunday ish joylariga bitiruvchilarni tayyorlash kerakki, ma’suliyat sifati muntazam o‘zgarib tursa, vertikal menejment tarmoqliga almasha, axborot turli norasmiy kanallar orqali

uzatilsa, bo'ysunishdan ko'ra shaxsiy taklif baholansa va barcha strategiyalar birlashsa, milliy chegaralar uchun bozor munosabatlari ekspansiyasiga asoslanadi.

O'quv jarayoni qatnashchilarini axborotlashtirilishining 2 turda yo'nalishdagi tendensiyalari hozirgi paytda aniqlanyapti. Birinchisi turli axborotlarni ko'payishi, zamonaviy bazalar va ma'lumot banklari yaratilishi, dasturiy ta'minot va uslubiy, statistik materiallarni nashrdan chiqarish bilan kuzatiladi. Ikkinchidan, qarama – qarshisi, ob'ektiv va sub'ektiv xarakterga ega axborot oqimlarini tanlash tendensiyasi bilan bog'liq.

Ob'ektiv xarakterga ega chegaralashlar yopiq normativ dalolatnomalar bilan bog'liq yuqori to'lovlar kiritilgani sababli axborotga kirish qisqartiriladi. Sub'ektiv xarakterga ega chegaralashlar o'qituvchilarning o'quvsizligi va talabalarni holatga tez moslasha olmasliklari va kerakli axborotni topa olmasliklari, ulardan kasbiy foydalana olmasliklari bilan bog'liq.

Oliy ta'lim doirasida axborot texnologiyalarni ishlatishning 3 ta o'zaro bog'liq sohalarini ajratish mumkin: auditoriya mashg'ulotlari uchun, elektron kutubxonalar, Internet.

O'quv jarayonida kompyuter texnologiyalari asosida o'qitilishini zamonaviy bosqichida qo'llanishi o'qitish usuli sifatida kompyuterni galdan galgacha emas, balki muntazam birinchi mashg'ulotdan oxirigisigacha ishlatilishi ko'zda tutiladi.

O'qituvchi kompyuter dasturlarining yaratilishi, ayniqsa maxsus asboblarning ishlatilmasligi – bu kun mehnat talab etuvchi mushkul ish. Ko'p ijodiy jamoalar tomonidan ishlatiladigan texnologiya bir yil ichida 400 – 800 axborot va grafik kadrlardan iborat dasturiy mahsulot ishlab chiqishga imkon beradi. Ayrim o'qitilish kompyuter dasturlarini ishlab chiqish bir necha yilga cho'ziladi. 1 soatlik kursni tayyorlash uchun mutaxassislar 50 dan 500 soatgacha ishlaydilar. Bunday ishni 10 – 15 yil avval juda katta va yaxshi moliyalashgan jamoalar bajarar edilar. Dj. Morris ta'kidlariga ko'ra, 1984 yilda ishlab chiqilgan elektron kursining 1 soati 10000 dollar qiymatiga ega edi. A. Bork ekspert ko'rsatmalariga asosan 1985 yilda oliy matematikadan 6 – semestrli avtomatlashtirilgan kursni ishlab chiqishga 3 – 5 mln. dollarli xarajatlar kerakligini aytdi. Hozirgi kunda kompyuter o'quv dasturlarini

ishlab chiqish uchun xarajatlar 3 – 5 barobar kamroq, lekin ular ham mahsus moliyalashtirilmagan kichik jamoalarga og‘ir keladi. Bu esa ta‘limning qo‘shimchalarni ishlab chiqish va tarqatilishi yo‘lidagi muammolardan faqat kichik qismidir.

A.Kuchment dalillariga ko‘ra, ta‘limga qaratilgan Rossiya investitsiyalari shundayki, Rossiya bilim saviyasi bo‘yicha 38 - o‘rinni, iqtisodning raqobatdoshligi bo‘yicha 53 – o‘rin va iqtisodiy erkinlik bo‘yicha 115 – o‘rinni egallaydi. 1997 yilda axborot texnologiyalari xarajatlari kishi boshiga AQShda – 1095 USD ni, Germaniyada – 613 USDni, Rossiyada – 14 USDni, (AQSh xarajatlarini 1,28 %) tashkil etadi. 70 yillarning oxiridan (axborot va ilmiy texnik qoloqlik) boshlab bizning jamiyatimizni dunyo miqiyosidan axborot va ilmiy texnik qoloqligi eksponensial darajada o‘tib bordi. Rossiya ekspertlari ma‘lumotiga ko‘ra 1989 yilda Sovet olimlarining axborot ta‘minoti ishlari AQSh hamkasabalariga nisbatan 10 barobar past edi.

Ilmiy – ta‘lim davlat potentsiali keskin pasaydi. Rossiya umumiy aholisining 37% - oliy va o‘rta maxsus ma‘lumotli bo‘lsada, Rossiya intellektual davlat maqomiga ega bo‘lishga noloq deb topildi, chunki axolining voyaga etgan qismidan 40 – 60 % oliy ma‘lumotga ega bo‘lishi shart. Shunday fragmentarlik kelib chiqadi. O‘qitilishning kompyuter texnologiyalari asoslarini ommalashtirishning tizimi mavjud emasligi, ta‘lim loyixalarini ma‘qul natijalarini tirajlash mumkin emasligi. Ta‘lim maqsadlariga qaratilgan axborot texnologiyalarni qo‘llashning yoyiq taxlili rivojlangan xorijiy davlatlarda qiziqishga loyiq.

Dunyoning yetakchi davlatlarida (Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Avstraliya, Fransiya va boshqalar) 60 – yillardan boshlab mediata‘limga asosiy e‘tibor qaratila boshladi, u o‘quvchi va talabalarga mediamadaniyat dunyosiga bemalol kirishga yordam beradi, ommaviy axborot vositalari tilini o‘rganishda, mediamatnlarni taxlil qilishni o‘rganishda yordam beradi.

1987 yildan boshlab Kanadaning Ontario shahrida besh mingga yaqin o‘rta maktablarda (7 – 12 sinflarda) mediata‘lim majburiy fan sifatida kiritildi,

Avstraliyada 1990 yildan boshlab bu fan 1 – 12 sinflarda (bolalar bog‘chalarida ham) kiritildi.

Dastlab AQShda mediamadaniyatdan farqli mediata’lim Kanada yoki Fransiyadagidan sustroq rivojlandi, lekin 90 yillarga yaqin Amerika mediata’lim tizimi tuzulganligi haqida so‘z yuritish mumkin, sayt Internet tarmoqlari, nashrlar, konferensiyalar orqali boshqa davlatlarga ta’sir etadi. AQShda bir necha yirik mediata’lim assotsiatsiyalari faoliyat ko‘rsatyapti. (Center for Media Education) mediata’lim markazi Vashintonda, Los – Andjelesda mediabilimlar markazi, Shimoliy Karolinadagi fuqarolar “mediabilimlar tomonida” xarakati (Citizens for Media Literacy) va boshqalar. Mediata’lim obro‘sining o‘sishi shunga olib keldiki, 90 – yillarda AQShning 12 shaharida mediata’lim va mediabilimlar bo‘limlaridan ta’lim standartlariga kiritish qabul qilindi.

Mediata’lim orqali elektron o‘quv resurslarini sifatli yaratishga katta e’tibor qaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. R.Hamdamov, U.Begimkulov, N.Tayloqov. Ta’limda axborot texnologiyalari. Qo‘llanma T. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2010

2. S.S.G‘ulomov. R.X.Alimov va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. Darslik T.; “Shark”. 2000.

3. Абдурахманова, Ш. А., & Хасанов, А. А. (2019). Применение wiki-технологий в образовании. *профессионально-педагогическая культура учителя и преподавателя: содержание, модели и технологии образовательной деятельности*, 95.

4. Abdurakhmanova, S. A. (2018). Developing Students’ Intellectual Skills at Pedagogical Universities of Uzbekistan Republic based on Multimedia Technologies. *www. auris-verlag. de*.

5. Elmurzaevich, M. A. (2022, February). Use of cloud technologies in education. In Conference Zone (pp. 191-192).

6. Elmurzaevich-TSPU, M. O., & Rustamovich, A. J. (2019). The benefits of using information technology in the education system. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
7. Ilyich, M. E. (2023, November). Aspects of improving the education system in technological universities. In *E Conference World* (No. 2, pp. 128-137).
8. Ilyich, M. E. (2023). Big data analysis in education. *World Bulletin of Management and Law*, 23, 74-76.
9. Bagbekova Laylo Kadirbergenovna. (2022). Teaching computer graphics as a pedagogical problem on the basis of massive open online courses in information conditions. *World Bulletin of Social Sciences*, 8, 71-74.
10. Bagbekova Laylo Kadirbergenovna. (2023). Teaching computer graphics on the basis of modern methods as a pedagogical problem in the conditions of digital education. *World Bulletin of Management and Law*, 23, 52-55. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/2871>
11. Qizi, U. S. B. (2022). The role of video production in modern pedagogical technologies.
12. Хасанов, А. А., & Ўроқова, Ш. Б. Қ. (2021). Цифровизация образования на современном этапе развития информатизированного общества. *Scientific progress*, 2(1), 300-308.
13. Qizi, U. S. B. (2021). Digitization Of Education At The Present Stage Of Modern Development Of Information Society. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(05), 95-103.
14. Bakieva, ZR, & Muxammadkhujaev, BB (2018). Zamonaviy animatsiya va maktabgacha yoshdagi bolalar: media savodxonligi masalasi. *Sharqiy Yevropa ilmiy jurnali* , (2).
15. Bakiyeva, Z. (2019). Program with opportunities 3D characters. *Bridge to science research works*, 49.